Annotatsiya. Ushbu maqolada raqobatbardosh iqtisodiy muhitni shakllantirish sharoitida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishlari ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tadqiq etiladi. Kichik biznes milliy iqtisodiyotda bandlikni ta'minlash, aholi daromadlarini oshirish, ichki bozorni tovar va xizmatlar bilan to'ldirish, innovatsion faollikni kuchaytirish hamda hududiy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Tadqiqotda tizimli, taqqoslama, statistik, dinamik tahlil, guruhlash va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Statistik asos sifatida O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining kichik biznes va tadbirkorlik bo'yicha rasmiy ma'lumotlari olindi. Natijalar kichik tadbirkorlik subyektlari bandlikda yuqori ulushni saqlab qolayotganini, biroq YAIMdagi ulushining pasayishi kichik biznesni sifat jihatdan rivojlantirish zaruratini kuchaytirayotganini ko'rsatadi. Maqolada moliyaviy qo'llab-quvvatlash, innovatsion faollik, institutsional infratuzilma, raqamli texnologiyalar, eksportga yo'naltirish va hududiy tadbirkorlik salohiyatini oshirish asosiy takomillashtirish yo'nalishlari sifatida asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: kichik biznes, tadbirkorlik, raqobatbardoshlik, rivojlanish mexanizmi, institutsional qo'llab-quvvatlash, moliyaviy mexanizm, innovatsion faoliyat, biznes muhiti.

Abstract. This article examines the scientific-theoretical and practical directions for improving the mechanisms of small business and entrepreneurship development under the conditions of forming a competitive economic environment. Small business plays an important role in ensuring employment, increasing household incomes, supplying the domestic market with goods and services, enhancing innovation activity, and maintaining regional economic stability. The study applies systematic, comparative, statistical, dynamic analysis, grouping, and generalization methods. Official data from the National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan on small business and entrepreneurship were used as the statistical basis of the research. The results indicate that small business entities continue to maintain a high share in employment, while the decline in their share in GDP increases the need for qualitative development of small businesses. The article substantiates financial support, innovation activity, institutional infrastructure, digital technologies, export orientation, and strengthening regional entrepreneurial potential as the main directions for improvement.

Key words: small business, entrepreneurship, competitiveness, development mechanism, institutional support, financial mechanism, innovative activity, business environment.

Аннотация. В данной статье исследуются научно-теоретические и практические направления совершенствования механизмов развития малого бизнеса и предпринимательства в условиях формирования конкурентной экономической среды. Малый бизнес является важным фактором обеспечения занятости, повышения доходов населения, насыщения внутреннего рынка товарами и услугами, усиления инновационной активности и обеспечения региональной экономической устойчивости. В исследовании использованы системный, сравнительный, статистический, динамический анализ, методы группировки и обобщения. В качестве статистической базы использованы официальные данные Национального комитета по статистике Республики Узбекистан по малому бизнесу и предпринимательству. Результаты показывают, что субъекты малого предпринимательства сохраняют высокую долю в занятости населения, однако снижение их доли в ВВП усиливает необходимость качественного развития малого бизнеса. В статье обоснованы основные направления совершенствования: финансовая поддержка, инновационная активность, институциональная инфраструктура, цифровые технологии, экспортная ориентация и повышение предпринимательского потенциала регионов.

Ключевые слова: малый бизнес, предпринимательство, конкурентоспособность, механизм развития, институциональная поддержка, финансовый механизм, инновационная деятельность, бизнес-среда.

## KIRISH

Bugungi globallashuv va bozor iqtisodiyotining chuqurlashuvi sharoitida milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi nafaqat yirik korxonalar, balki kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy faolligi, moslashuvchanligi hamda innovatsion salohiyati bilan ham belgilanadi. Kichik biznes subyektlari bozor talabiga tez moslashishi, yangi ish oʻrinlarini yaratishi, hududiy iqtisodiy faollikni kuchaytirishi va aholining tadbirkorlik tashabbuslarini iqtisodiy resursga aylantirishi bilan ajralib turadi. Shu sababli kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish raqobatbardosh iqtisodiy muhitni shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Oʻzbekistonning strategik hujjatlarida kichik va oʻrta biznesni rivojlantirish, mikromoliyalashtirishni kengaytirish, innovatsiyalar va startaplarni qoʻllab-quvvatlash hamda yirik biznes bilan kooperatsiyani kuchaytirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu esa kichik biznesni faqat bandlikni taʼminlovchi soha sifatida emas, balki innovatsion, eksportga yoʻnaltirilgan va raqobatbardosh iqtisodiy oʻsishning faol subyekti sifatida rivojlantirish zarurligini koʻrsatadi.

Shu bilan birga, kichik biznes subyektlari faoliyatida moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, kredit garovi bilan bogʻliq tartiblarni takomillashtirish, infratuzilmani rivojlantirish, marketing va boshqaruv kompetensiyalarini oshirish, bozor axborotlaridan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish koʻlamini kengaytirish dolzarb masalalardan biri boʻlib qolmoqda. Kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishda ishlab chiqarish samaradorligini kuchaytirish, mahsulot sifatini yaxshilash, xizmat koʻrsatish madaniyatini rivojlantirish, innovatsion faollikni ragʻbatlantirish va eksport salohiyatini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning maqsadi — raqobatbardoshlikni shakllantirish sharoitida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirishning ilmiy-amaliy yoʻnalishlarini asoslashdan iborat. Tadqiqot obyekti sifatida Oʻzbekistonda kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyati, predmeti sifatida esa ularni rivojlantirishning moliyaviy, institutsional, tashkiliy-iqtisodiy, innovatsion va raqamli mexanizmlari olindi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznes va tadbirkorlikning iqtisodiy mohiyati, ularning raqobatbardoshlikni shakllantirishdagi roli, davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash mexanizmlari va institutsional infratuzilma masalalari iqtisodiy adabiyotlarda keng oʻrganilgan. MDH olimlari yondashuvlarida kichik biznes, avvalo, bozor iqtisodiyotining moslashuvchan, tashabbuskor va innovatsiyaga moyil boʻgʻini sifatida talqin qilinadi. Jumladan, R.A. Fatxutdinovning raqobatbardoshlik boʻyicha qarashlarida korxona ustunligi mahsulot sifati, xarajatlar darajasi, innovatsion yangilanish va boshqaruv strategiyasining uygʻunligi orqali shakllanishi taʼkidlanadi. Ushbu yondashuv kichik biznes subyektlari uchun ham muhim, chunki ular cheklangan resurslar sharoitida xarajatlarni optimallashtirish va bozor talabiga moslashish orqali raqobat ustunligiga erishadi.

V.Ya. Gorfinkel , M.G. Lapusta va A.N. Asaul kabi MDH olimlari tadbirkorlikni bozor imkoniyatlarini aniqlash, resurslarni safarbar qilish va iqtisodiy tavakkalchilikni boshqarish jarayoni sifatida talqin etadilar. Ushbu yondashuvlarda kichik biznesning asosiy afzalligi uning tezkor qaror qabul qilish, mahalliy bozor ehtiyojlarini chuqur bilish va mijozlarga yaqin faoliyat yuritish xususiyati bilan bogʻlanadi. Biroq MDH adabiyotlarida kichik biznesning moliyaviy zaifligi, kredit taʼminoti yetishmovchiligi va institutsional qoʻllab-quvvatlash mexanizmlariga ehtiyoji ham alohida koʻrsatiladi.

Oʻzbekiston olimlari ilmiy ishlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, aholi bandligini oshirish, mulkdorlar sinfini shakllantirish va hududiy iqtisodiy faollikni kuchaytirish omili sifatida baholanadi. S.S. Gʻulomov , B.Yu. Xodiyev , A.V. Vahobov, Q.X. Abdurahmonov, N.K. Yoʻldoshev, A. Oʻlmasov kabi olimlarning iqtisodiyot, tadbirkorlik, menejment, mehnat bozori va biznes boshqaruvi boʻyicha yondashuvlarida kichik biznesning bozor infratuzilmasi bilan oʻzaro bogʻliqligi, davlat qoʻllab-quvvatlashi va moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlari muhim oʻrin egallaydi.

Adabiyotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, kichik biznesni rivojlantirish boʻyicha ilmiy qarashlarni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh yondashuvlar kichik biznesning iqtisodiy mazmuni va bozor tizimidagi oʻrniga eʼtibor qaratadi. Ikkinchi guruh yondashuvlar kichik biznesning raqobatbardoshligini moliyaviy resurslar, innovatsiyalar, marketing va inson kapitali orqali izohlaydi. Uchinchi guruh esa kichik biznesni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash, biznes infratuzilmasi, soliq imtiyozlari, kredit-kafillik tizimi va institutsional mexanizmlar bilan bogʻlab tahlil qiladi.

Oʻzbekiston sharoitida kichik biznesni rivojlantirish boʻyicha ilmiy yondashuvlar amaliy islohotlar bilan chambarchas bogʻliq. Jumladan, “Kichik biznesni uzluksiz qoʻllab-quvvatlash” kompleks dasturining joriy etilishi, Biznesni rivojlantirish bankining tayanch bank sifatida belgilanishi va dasturning tashkiliy-institutsional tuzilmasi tasdiqlanishi kichik biznesni qoʻllab-quvvatlashga tizimli yondashuv kuchayayotganini koʻrsatadi. Demak,

nazariy jihatdan kichik biznesning raqobatbardoshligi korxona ichki salohiyati, tashqi institutsional muhit va davlat qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining o‘zaro integratsiyasi orqali shakllanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish mexanizmlarini tizimli o‘rganishga asoslandi. Bunda tizimli tahlil usuli orqali kichik biznes faoliyatiga ta’sir etuvchi moliyaviy, institutsional, innovatsion, infratuzilmaviy va tashkiliy-boshqaruv omillari o‘zaro bog‘liq holda o‘rganildi. Taqqoslama tahlil orqali 2020–2024-yillarda kichik biznesning YAIM, bandlik, sanoat va qurilishdagi ulushi dinamikasi baholandi. Statistik tahlil usuli yordamida rasmiy ko‘rsatkichlar jadvalga jamlandi va ulardagi o‘zgarishlar iqtisodiy mazmun jihatidan izohlandi.

Statistik ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining “Kichik biznes va tadbirkorlik” bo‘limidagi ochiq ma’lumotlaridan olindi. Ushbu bo‘limda kichik tadbirkorlik subyektlarining jami bandlikdagi ulushi, jami YAIMdagi ulushi, sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi va qurilish ishlaridagi ulushi alohida indikatorlar sifatida berilgan. YAIMdagi ulush kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymatni respublika YAIM hajmiga nisbatan hisoblash orqali aniqlanadi. Sanoatdagi ulush kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmini jami sanoat mahsuloti hajmiga nisbatan hisoblash orqali aniqlanadi. Qurilishdagi ulush esa kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmini jami qurilish ishlari hajmiga nisbatan hisoblash orqali aniqlanadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

2020–2024-yillar davomida kichik biznesning YAIMdagi ulushi 56,7 foizdan 53,5 foizgacha pasaygan. Mazkur pasayish kichik biznesning iqtisodiyotdagi ahamiyati kamayganini emas, balki iqtisodiyot tarkibida yirik sanoat loyihalari, kapital sig‘imi yuqori bo‘lgan ishlab chiqarish tarmoqlari va davlat investitsiyalari ishtirokidagi yirik loyihalar ulushi ortib borayotganini ham anglatishi mumkin. Shu bilan birga, kichik biznesning YAIMdagi ulushi hanuz yuqori darajada saqlanib qolmoqda, bu esa uning milliy iqtisodiyotdagi strukturaviy rolini ko‘rsatadi(1-jadval).

1-jadval. O‘zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlikning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari, foizda

| Yillar | Kichik biznesning YaIMdagi ulushi | Kichik biznesning jami bandlikdagi ulushi | Kichik biznesning sanoatdagi ulushi | Kichik biznesning qurilishdagi ulushi |
|---|---|---|---|---|
| 2020 | 56,7 | 74,5 | 27,9 | 72,5 |
| 2021 | 56,3 | 74,5 | 27,4 | 72,5 |
| 2022 | 54,3 | 73,9 | 26,0 | 71,5 |
| 2023 | 53,8 | 74,0 | 27,0 | 78,5 |
| 2024 | 53,5 | 74,5 | 31,9 | 75,4 |

Kichik biznesning jami bandlikdagi ulushi 2020-yilda 74,5 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilda ham aynan 74,5 foizga teng bo‘lgan. Bu kichik biznesning mehnat bozoridagi barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rolini tasdiqlaydi. Sanoatdagi ulush esa 2022-yilda 26,0 foizgacha pasaygan bo‘lsa, 2024-yilda 31,9 foizga yetgan. Bu kichik sanoat zonalari, mahalliy ishlab chiqarish, kooperatsiya va sanoatlashgan tadbirkorlik shakllarining faollashuvi bilan izohlanishi mumkin.

Qurilishdagi ulush esa 2023-yilda 78,5 foizga ko‘tarilib, 2024-yilda 75,4 foizni tashkil etgan. Ushbu ko‘rsatkich kichik biznesning qurilish-pudrat, ta’mirlash, mahalliy qurilish materiallari va xizmat ko‘rsatish zanjirlarida muhim o‘rin tutayotganini ko‘rsatadi(2-jadval).

2-jadval. Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishga ta'sir etuvchi asosiy omillar va ularning iqtisodiy mazmuni.

| Omillar guruhi | Omilning mazmuni | Kichik biznes rivojiga ta'siri | Raqobatbardoshlikka ta'siri | Takomillashtirish yo'nalishlari |
|---|---|---|---|---|
| Moliyaviy omillar | Kredit, mikrokredit, grant, subsidiya, kafillik va aylanma mablag'lar | Investitsiya va ishlab chiqarish hajmini kengaytiradi | Xarajatlarni kamaytirish va texnologik yangilanishga yordam beradi | Differensial kreditlash, garovsiz mikromoliyalashtirish, portfel kafilligi |
| Institutsional omillar | Qonunchilik, davlat dasturlari, litsenziyalash, soliq va ruxsat berish tartiblari | Biznes yuritish barqarorligini ta'minlaydi | Tadbirkorlik muhitining shaffofligi va ishonchliligini oshiradi | Ruxsat berish jarayonlarini soddalashtirish, "yagona oyna" xizmatlarini kengaytirish |
| Innovatsion omillar | Yangi mahsulot, yangi texnologiya, startaplar, ilmiy ishlanmalar | Mahsulot va xizmatlar assortimentini kengaytiradi | Yangi bozor segmentlariga chiqish imkonini beradi | Innovatsion grantlar, startap akseleratorlari, texnoparklar bilan integratsiya |
| Infratuzilmaviy omillar | Transport, logistika, kommunikatsiya, energiya, biznes markazlari | Ishlab chiqarish va yetkazib berish xarajatlarini kamaytiradi | Bozorga tezkor chiqish va xizmat sifatini oshiradi | Hududiy biznes infratuzilmasini rivojlantirish, klasterlar tashkil etish |
| Tashkiliy-boshqaruv omillari | Menejment, biznes-reja, strategik rejalashtirish, risklarni boshqarish | Resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi | Qaror qabul qilish sifati va bozor moslashuvchanligini oshiradi | Tadbirkorlar uchun maslahat xizmatlari, mentorlik va boshqaruv kurslarini kengaytirish |
| Marketing omillari | Bozor tahlili, brending, reklama, mijozlar bilan ishlash | Savdo hajmini oshiradi va mijozlar bazasini kengaytiradi | Mahsulotni farqlash va bozor pozitsiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi | Raqamli marketing, eksport marketingi va elektron savdo platformalarini rivojlantirish |
| Raqamli texnologiyalar | Elektron tijorat, CRM, onlayn to'lovlar, raqamli hisobot, platformalar | Operatsion xarajatlarni kamaytiradi | Tezkorlik, shaffoflik va mijozga yaqinlikni oshiradi | Raqamli savodxonlik, e-commerce infratuzilmasi, onlayn servislarni kengaytirish |

Kichik biznesning raqobatbardoshligi faqat moliyaviy qo'llab-quvvatlash bilan cheklanmaydi. U moliya, institutlar, innovatsiyalar, infratuzilma, boshqaruv, marketing va raqamli texnologiyalar o'rtasidagi tizimli bog'liqlik natijasida shakllanadi. Masalan, imtiyozli kreditlar tadbirkorga boshlang'ich resurs beradi, biroq marketing, boshqaruv va raqamli texnologiyalar yetarli bo'lmasa, ushbu resurs yuqori iqtisodiy natijaga aylanmasligi mumkin. Shuning uchun kichik biznesni rivojlantirish mexanizmlari kompleks xarakterga ega bo'lishi kerak.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlik iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, bandlikdagi yuqori ulush uning ijtimoiy ahamiyatini kuchaytiradi. Biroq 2020–2024-yillarda YAIMdagi ulushning 56,7 foizdan 53,5 foizgacha pasayishi kichik biznes samaradorligini oshirish, uni yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan tarmoqlarga yo'naltirish va sanoatlashgan tadbirkorlikni rivojlantirish zaruratini ko'rsatadi.

Amaldagi davlat siyosatida kichik biznesni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, 2023-yildan "Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash" kompleks dasturi amalga oshirilib, Biznesni rivojlantirish banki uning asosiy tayanch banki sifatida belgilangan. 2024-yilda esa kichik biznesni barqaror moliyaviy qo'llab-quvvatlash, bank va mikromoliyalashtirish xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha yangi mexanizmlar joriy etilgan. Bunda bir loyiha doirasida 300 million so'mgacha mikrokredit ajratish, 100 million so'mgacha garovsiz qismini belgilash hamda kredit tavakkalchiligini davlat va mikrokredit beruvchilar o'rtasida taqsimlash kabi vositalar nazarda tutilgan. Shuningdek, kichik tadbirkorlik subyektlariga bir yil davomida 10 trln so'm miqdorida mikrokreditlar yo'naltirish vazifasi belgilangan.

Mazkur chora-tadbirlar kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyatga ega bo'lsa-da, raqobatbardoshlikni shakllantirish uchun moliyaviy resurslarning o'zi yetarli emas. Kichik biznes subyektlari bozorda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun mahsulot sifati, texnologik yangilanish, xodimlar malakasi, logistika, marketing strategiyasi, raqamli savdo kanallari va mijozlar bilan ishlash tizimi ham rivojlangan bo'lishi zarur. Shu sababli qo'llab-quvvatlash mexanizmlarida moliyalashtirish bilan birga, biznesni o'qitish, mentorlik,

konsalting, texnologik modernizatsiya va eksportga tayyorlash xizmatlarini yagona tizimda amalga oshirish maqsadga muvofiq.




1-rasm. Raqobatbardoshlik sharoitida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish mexanizmi.

Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishni bosqichma-bosqich jarayon sifatida ifodalaydi. Birinchi bosqichda tashqi muhit omillari tadbirkorlik faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bozor talabi, raqobat darajasi, davlat siyosati va raqamli transformatsiya kichik biznesning qaysi yo‘nalishda rivojlanishini belgilaydi. Ikkinchi bosqichda ichki salohiyat omillari, ya’ni moliyaviy resurslar, inson kapitali, boshqaruv tizimi va marketing imkoniyatlari tadbirkorlik subyektining real raqobat kuchini shakllantiradi. Uchinchi bosqichda davlat va bozor infratuzilmasi tomonidan ko‘rsatiladigan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari kichik biznesning cheklangan resurslarini to‘ldiradi. To‘rtinchi bosqichda innovatsion tadbirkorlik, eksport, raqamli biznes, klasterlashuv va kooperatsiya kabi rivojlanish yo‘nalishlari shakllanadi. Yakuniy natijada esa kichik biznesning raqobatbardoshligi oshadi, bandlik kengayadi, ishlab chiqarish va xizmatlar hajmi ortadi hamda hududiy iqtisodiy rivojlanish jadallashadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqobatbardosh iqtisodiy muhitni shakllantirish sharoitida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish kompleks va bosqichma-bosqich yondashuvni talab qiladi. Kichik biznes O‘zbekistonda bandlikni ta’minlashda muhim o‘rin tutib, 2020–2024-yillarda jami bandlikdagi ulushi 73,9–74,5 foiz oralig‘ida saqlangan. Shu bilan birga, YAIMdagi ulushning 56,7 foizdan 53,5 foizgacha pasayishi kichik biznesni yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan, innovatsion, sanoatlashgan va eksportga yo‘naltirilgan faoliyat turlariga bosqichma-bosqich o‘tkazish zarurligini ko‘rsatadi.

Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha bir qator ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish mumkin. Avvalo, kichik biznes subyektlari uchun differensial moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimini joriy etish zarur. Bunda moliyalashtirish shartlari hududning iqtisodiy salohiyati, faoliyat yo‘nalishi, yangi ish o‘rinlari yaratish imkoniyati va qo‘shilgan qiymat darajasiga qarab farqlanishi lozim. Shuningdek, kredit, grant, subsidiya va kafillik mexanizmlarini yagona elektron platforma orqali muvofiqlashtirish tadbirkorlar uchun axborot izlash xarajatlarini kamaytiradi hamda moliyaviy resurslardan foydalanish shaffofligini oshiradi.

Hududlar kesimida tadbirkorlik salohiyati reytingini ishlab chiqish ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu reytingda yangi tashkil etilgan korxonalar soni, faol kichik biznes subyektlari ulushi, sanoat va xizmatlar hajmi, eksport salohiyati, infratuzilma mavjudligi, bank kreditlaridan foydalanish darajasi va raqamli savdo kanallari kabi koʻrsatkichlar hisobga olinishi kerak. Bundan tashqari, elektron tijorat, onlayn toʻlovlar, CRM tizimlari, raqamli marketing va elektron hisobot mexanizmlaridan foydalanishni ragʻbatlantirish kichik biznesning bozor qamrovini kengaytiradi va xarajatlarni kamaytiradi.

Biznes-inkubatorlar, texnoparklar va konsalting markazlari faoliyatini hududiy darajada kengaytirish yangi tadbirkorlar uchun amaliy yordam tizimini kuchaytiradi. Ayniqsa, biznes-reja tuzish, moliyaviy savodxonlik, marketing, soliq va huquqiy maslahatlar, eksportga tayyorlash boʻyicha xizmatlar zarur. Shuningdek, kichik biznes subyektlarini yirik korxonalar bilan kooperatsiyaga jalb qilish ularning barqaror buyurtmalar olishi, sifat standartlarini oʻzlashtirishi va sanoat zanjirlariga qoʻshilishiga xizmat qiladi.

Maqolaning ilmiy yangiligi shundan iboratki, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish mexanizmlari raqobatbardoshlikni shakllantiruvchi tashqi muhit, ichki salohiyat, qoʻllab-quvvatlash instrumentlari, rivojlanish yoʻnalishlari va yakuniy iqtisodiy natijalar oʻrtasidagi integratsiyalashgan tizim sifatida talqin qilindi. Ushbu yondashuv kichik biznesni milliy iqtisodiyotda raqobatbardosh oʻsishni taʼminlovchi faol subyekt sifatida baholash imkonini beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati**

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-sentabrdagi PQ-306-son “Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qoʻllab-quvvatlash chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Qarori. https://lex.uz/docs/-6609110
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-sentabrdagi PQ-312-son “Kichik biznesni uzluksiz qoʻllab-quvvatlash” kompleks dasturini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Qarori. https://lex.uz/uz/docs/-7093832
3. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-avgustdagi PF-132-son “Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan toʻrtinchi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Farmoni. https://lex.uz/uz/docs/-7089547
4. Oʻzbekiston Respublikasi Milliy statistika qoʻmitasi. “Kichik biznes va tadbirkorlik” boʻlimi rasmiy ochiq maʼlumotlari.
5. Фатхутдинов Р.А. Управление конкурентоспособностью организации. — М.: Маркет ДС, 2008. — 432 с.
6. Малое предпринимательство: организация, управление, экономика: учебное пособие / под ред. В.Я. Горфинкеля. — М.: Вузовский учебник; ИНФРА-М, 2014. — 349 с.
7. Лапуста М.Г. Малое предпринимательство: учебник. — М.: ИНФРА-М, 2008. — 685 с.
8. Асаул А.Н., Войнаренко М.П., Крюкова И.В., Люлин П.Б. Организация предпринимательской деятельности: учебник / под ред. А.Н. Асаула. — 5-е изд., перераб. и доп. — М.: Проспект, 2016. — 400 с.
9. Gʻulomov S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes: oʻquv qoʻllanma. — Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2002.
10. Xodiyev B.Yu., Qosimova M.S., Samadov A.N. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik: oʻquv qoʻllanma. — Toshkent: TDIU, 2010. — 267 b.
11. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya: darslik. — Toshkent: Noshir, 2011. — 712 b.
12. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot: darslik. — Qayta ishlangan va toʻldirilgan 3-nashr. — Toshkent: Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti, 2019. — 544 b.
13. Yoʻldoshev N.K., Zaxidov G.E. Menejment: darslik. — Toshkent: Oʻzbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2018. — 392 b.

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li

**2026. № 5 (3)**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz